



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

2 (88) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

2 (88)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026
февраль

Received: 20.01.2026, Accepted: 06.02.2026, Published: 10.02.2026

UDK 616.31-084:621.001.2

MASHINASOZLIK ISHCHILARIDA STOMATOLOGIK KASALLIKLARNI KOMPLEKS PROFILAKTIKASI

Vohidov Elbek Rahimovich <https://orcid.org/0009-0006-9625-9851> e-mail: elbek_vohidov@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy kochasi
1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

Mashinasozlikdagi zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari og'iz bo'shlig'i organlari va to'qimalariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadigan bir qator salbiy omillar - metall aërozollari, tebranish, issiqlik va shovqin hamda organik birikmalar ta'siriga uchraydi. Ushbu sohada ishlaydigan ishchilar yallig'lanish va destruktiv parodont kasalliklari, shuningdek, chaynov tizimining funksional buzilishlarining yuqori darajada uchrashi shular jumlasidandir. An'anaviy davolash usullarining samarasizligi stomatologiya, gigiena va reabilitatsiyani birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Kalit so'zlar. Mashinasozlikdagi zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, og'iz bo'shlig'i organlari, to'qimalariga sezilarli darajadasi, metall aërozollari, tebranish, issiqlik va shovqin hamda organik birikmalar.

КОМПЛЕКСНАЯ ПРОФИЛАКТИКА СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У РАБОТНИКОВ МАШИНОСТРОЕНИЯ

Воҳидов Элбек Раҳимович <https://orcid.org/0009-0006-9625-9851> e-mail: elbekvohidov@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

Современные производственные процессы в машиностроении подвержены воздействию ряда негативных факторов, оказывающих существенное негативное воздействие на органы и ткани полости рта - аэрозолей металлов, вибрации, тепла и шума, а также органических соединений. Работники, работающие в этой области, имеют высокий уровень воспалительных и деструктивных заболеваний пародонта, а также функциональных нарушений жевательной системы. Неэффективность традиционных методов лечения требует комплексного подхода, сочетающего стоматологию, гигиену и реабилитацию.

Ключевые слова: Современные производственные процессы в машиностроении, органы полости рта, значительное количество тканей, металлические аэрозоли, вибрация, тепло и шум, а также органические соединения.

COMPREHENSIVE PREVENTION OF DENTAL DISEASES IN MECHANICAL ENGINEERING WORKERS

Vohidov Elbek Rahimovich <https://orcid.org/0009-0006-9625-9851> e-mail: elbek_vohidov@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

Modern manufacturing processes in mechanical engineering are affected by a number of negative factors - metal aerosols, vibration, heat and noise, and organic compounds-which significantly negatively affect the organs and tissues of the oral cavity. These include inflammatory and destructive periodont diseases, as well as a high incidence of functional disorders of the chewing system, which work in this area. The inefficiency of traditional methods of treatment requires an integrated approach that combines dentistry, hygiene and rehabilitation.

Keywords. Modern production processes in Mechanical Engineering, significant level of oral organs, tissues, metal aerosols, vibration, heat and noise, and organic compounds.

Dolzarbligi

Mashinasozlikdagi zamonaviy ishlab chiqarish ishchilarida ruhiy va ijtimoiy farovonligi holati sifatida belgilangan jamoat salomatligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu mehnatga layoqatli aholining salomatligidir. O'zbekiston Respublikasining mashinasozlik sanoati iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim tarmog'i bo'lib, 150 mingdan ortiq xodimning bandligini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda kasbiy omillar bilan bog'liq stomatologik patologiyaning rivojlanishidagi patogenetik mexanizmlarni hisobga oladigan, ilmiy asoslangan profilaktika va davolash dasturlari mavjud emas. Amaldagi klinik protokollar ishlab chiqarish zararli omillari ta'siri sharoitiga moslashtirilmagan va sanoat korxonalari xodimlarida kasalliklarning kechish xususiyatlarini inobatga olmaydi [1.3.5.7.9.11.13.15.17.19].

Ushbu uslubiy tavsiyalarning maqsadi - mashinasozlik korxonalari xodimlarida og'iz bo'shlig'i kasalliklarini patogenetik yondashuv hamda klinik tadqiqotlar natijalariga asoslangan ilmiy asoslangan davolash va profilaktika usullarini vrach stomatologlar amaliyotiga joriy etishdan iborat.

Uslubiy tavsiyalarning vazifalari:

zararli ishlab chiqarish sharoitida ishlovchi xodimlarda tish kariyesi va uning asoratlarini davolashning zamonaviy usullarini taqdim etish;

patogenetik xususiyatlarni hisobga olgan holda parodont kasalliklarini kompleks davolash algoritmlarini bayon qilish;

kasbiy etiologiyali og'iz bo'shlig'i shilliq qavati patologiyasini davolash usullarini tavsiflash;

stomatologik kasalliklarning uch bosqichli profilaktika tizimini (birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi) taqdim etish;

kompleks rehabilitatsiyada fizioterapevtik va balneologik usullarni qo'llashni asoslab berish;

turli xavf guruhlari uchun dispanser kuzatuv dasturlarini ishlab chiqish.

Maqsadli auditoriya: ushbu uslubiy tavsiyalar sanoat korxonalari tibbiy - sanitariya qismlaridagi terapevtik va profilaktik yo'nalishdagi vrach stomatologlar, kasb kasalliklari markazlari, poliklinikalar va zararli ishlab chiqarish xodimlariga davolash - profilaktika yordamini ko'rsatuvchi stomatologik klinikalar uchun mo'ljallangan.

Tavsiyalar vrach stomatologlarning oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'limi tizimida ham qo'llanilishi mumkin.

Klinik materialning tavsifi. Ushbu uslubiy tavsiyalar 2019-2024-yillarda mashinasozlik korxonalarining 356 nafar xodimi "SamAvto" zavodi, Samarqand liftsozlik zavodi, "Samarqand mexanika zavodi" AJ tekshiruvdan o'tkazildi. Ishtirokchilarning yoshi 20 dan 60 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh $39,2 \pm 8,7$ yilni tashkil etdi; o'rtacha kasbiy tajribasi $13,4 \pm 6,8$ yil. Nazorat guruhiga kasbiy zararli omillar ta'siriga duch kelmaydigan ma'muriy – boshqaruv apparatining 120 nafar xodimi kiritildi.

Asosiy guruh xodimlarining ishlab chiqarish turlari bo'yicha taqsimlanishi:

Quyma (litey) ishlab chiqarish - 52 nafar (14,6%): metall changi, yuqori harorat, issiqlik nurlanishi ta'siri.

Mexanik ishlov asosida ishlab chiqarishi - 98 nafar (27,5%): moylash-sovitish suyuqliklari aerozollari, metall changi, shovqin, titroq.

Payvandlash (svarka) ishlab chiqarishi - 56 nafar (15,7%): payvandlash aerozollari, ultrabinafsha nurlanish, ozon.

Termik ishlab chiqarish - 38 nafar (10,7%): yuqori harorat, moy bug'lari, is gazi.

Galvanik ishlab chiqarish - 32 nafar (9,0%): kislotalar bug'lari, ishqorlar, og'ir metall tuzlari.

Bo'yash asosida ishlab chiqarishi - 42 nafar (11,8%): organik erituvchilar, bo'yoq va lak aerozollari.

Yig'uv asosida ishlab chiqarishi - 38 nafar (10,7%): shovqin, tebranish, jismoniy ortiqcha yuklanishlar.

Tadqiqotning barcha ishtirokchilarida quyidagilarni o'z ichiga olgan kompleks stomatologik tekshiruv o'tkazildi:

shikoyatlarni yig'ish, kasallik va hayot anamnezini o'rganish (kasbiy zararli omillarga alohida e'tibor bilan);

og'iz bo'shlig'ini klinik ko'rikdan o'tkazish: tishlar, parodont, shilliq qavat holatini baholash;

stomatologik indeksni aniqlash: KPU (kariyes intensivligi), OHI-S (gigiyena), RMA, RI, CPITN (parodont holati);
rentgenologik tekshiruv (ortopantomografiya, pritsel rentgenografiya);
og'iz suyuqligini laborator tekshirish: pH, bufer sig'imi, mineral tarkib, POL va AOZ ko'rsatkichlari, immunologik parametrlar;
funksional usullar (lazer doppler floumetriyasi, reoparodontografiya).

Davolash va profilaktika usullari

Tekshiruv natijalari va aniqlangan patogenetik mexanizmlar asosida davolash-profilaktik chora – tadbirlarning kompleks tizimi ishlab chiqildi.

Davolash chora – tadbirlari:

zamonaviy plomba materiallari va texnologiyalardan foydalangan holda kariyesni differensial davolash;

parodont kasalliklarini kompleks davolash: professional gigiyena, yallig'lanishga qarshi terapiya, antioksidantlar va immunomodulyatorlarni qo'llash;

etiologik omilni hisobga olgan holda shilliq qavat patologiyasini davolash;

fizioterapevtik usullar (elektroforez, lazeroterapiya, ultratovush, magnitoterapiya);

balneologik omillar (mineral suvlar, shifobaxsh loy bilan davolash).

Profilaktik chora – tadbirlar:

Birlamchi profilaktika: gigiyenik tarbiya, professional gigiyena, ftorprofilaktika, remineralashtiruvchi vositalarni qo'llash;

Ikkilamchi profilaktika: kasalliklarning boshlang'ich shakllarini erta aniqlash va davolash, xavf guruhlarini dispanser kuzatuvga olish;

Uchlamchi profilaktika: retsidivlar va asoratlarning oldini olish, stomatologik rehabilitatsiya.

Ikkilamchi kariyes profilaktikasi

Mashinasozlik korxonalari xodimlarida kariyes retsidivlari yuqori chastotada uchrashi hisobga olinib, qo'shimcha profilaktik choralar talab etiladi:

plomba bilan tish to'qimalari orasidagi chegaraviy yoriqni ftor saqlovchi germetik bilan germetizatsiya qilish;

yilda 2 marta remineralashtiruvchi terapiya kurslari;

har 3–4 oyda og'iz bo'shlig'ining professional gigiyenasi;

har 3 oyda nazorat ko'rigi: plomбалarning chegaraviy yopishishini baholash;

uy sharoitida ftorprofilaktika (ftorli pastalar, chayish eritmalari).

Parodont kasalliklarini kompleks davolash

Kompleks terapiyaning patogenetik asoslanishi

Mashinasozlik korxonalari xodimlarida parodont kasalliklarini davolash kompleks bo'lishi va patogenezning barcha bo'g'inlariga ta'sir ko'rsatishi lozim:

mahalliy omillarni bartaraf etish (tish qoplami, tish toshi, travmatik okklyuziya);

patogen mikrofloraning ta'sirini kamaytirish, yallig'lanish jarayonini bartaraf etish, oksidativ stressni korreksiya qilish, mahalliy immunitetni tiklash;

reparativ jarayonlarni kuchaytirish [2.4.6.8.10.12.14.16.18.20].

Stomatologik kasalliklarning profilaktika tizimi

Birlamchi profilaktika

Birlamchi profilaktika sog'lom xodimlarda hamda patologiyaning dastlabki belgilari kuzatiladigan shaxslarda stomatologik kasalliklarning yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan.

Gigiyenik tarbiya va o'qitish

Tashkiliy shakllar:

Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi haqida ma'ruzalar va suhbatlar (ish joylarida, zavod klublarida – har chorakda 1 marta)

Tish tozalashning to'g'ri texnikasini namoyish etgan holda individual gigiyena darslari

Axborot materiallarini (yo'riqnoma – eslatmalar, plakatlar) tibbiy punktlarda, kiyim almashtirish xonalarida, oshxonalarda joylashtirish

Stomatologik kasalliklar profilaktikasi bo'yicha videoroliklarni namoyish qilish
Sanitariya – ma'rifiy ishlarning asosiy mavzulari:
Og'iz bo'shlig'i gigiyenasining kasalliklar profilaktikasidagi ahamiyati
Tish tozalashning to'g'ri texnikasi (Bass usuli, Fones aylanma usuli)
Qo'shimcha gigiyena vositalaridan foydalanish (floss, yorshiklar, irrigatorlar)
Kasbiy zararli omillarning og'iz bo'shlig'i holatiga ta'siri
Tishlar sog'ligi uchun oqilona ovqatlanish
Profilaktik ko'riklardan muntazam o'tish zarurati

Og'iz bo'shlig'ining professional gigiyenasi

Davomiyligi:

Sog'lom shaxslar va I dispanser guruhi - 6 oyda 1 marta

II dispanser guruhi (xavf guruhi) - 4 oyda 1 marta

III–IV dispanser guruhlari - 3 oyda 1 marta

O'tkazish metodikasi:

Indikatorlar (eritrozina, fuksin) yordamida tish qoplamini (nalyot) aniqlash

Milk usti tish toshini ultratovushli skeyler bilan olib tashlash

Pigmentlangan qoplamalarni Air Flow usuli bilan ketkazish

Tishlarni sayqallash (polirovka pastalari va cho'tkachalar bilan)

Flossing (tish oraliqlarini tozalash)

Tishlarni ftorlak yoki remineralashtiruvchi gel bilan qoplash

Endogen ftorprofilaktika

Ko'rsatmalar: kariyes faolligi yuqori bo'lgan ($KPO > 10$) va suvdagi ftor miqdori $< 0,8$ mg/l bo'lgan hududlarda yashovchi xodimlar.

Metodika: natriy ftoridi tabletkalarini sxema bo'yicha qabul qilish:

Doza: kuniga 1,5–2,0 mg ftor

Kurs: yiliga 250 kun (yoz oylarida tanaffuslar bilan)

Davomiyligi: 2–3 yil

Ekzogen ftorprofilaktika

Uy sharoitida ftor saqlovchi vositalarni qo'llash:

Ftorli tish pastalari (1450 ppm F): Colgate Total, Blend-a-med Pro-Expert, Lacalut Aktiv - kuniga 2 marta

Ftorli chayish eritmalari (225 ppm F) - kuniga 1 marta, kechqurun

Uyda qo'llanadigan ftorli gellar - yilda 2 marta, 2 haftalik kurslar bilan

Professional qo'llash:

Tishlarni ftorlak bilan qoplash (Bifluorid 12, Fluoridin N5) - yilda 2–4 marta

Kappalarda ftor saqlovchi gellar qo'llanilishi - yilda 2 marta, 10–15 muolajadan iborat kurs

Natriy ftoridining 2% eritmasi bilan elektroforez — yilda 1 marta, 10 muolaja kursi.

Ikkilamchi profilaktika

Ikkilamchi profilaktika kasalliklarning dastlabki shakllarini erta aniqlash va davolash, ularning ilgariylashini (progressiyasini) oldini olishga qaratilgan.

Dispanserizatsiya

Mashinasozlik korxonalaridagi barcha xodimlar majburiy dispanserizatsiyadan o'tkaziladi va guruhlarga ajratiladi:

I guruh (sog'lomlar) — tekshirilganlarning 10,4%:

Mezonlar: parodont intakt, $KPO < 6$, shilliq qavat patologiyasi yo'q

Ko'rik chastotasi: yilda 1 marta

Chora – tadbirlar:

profilaktik ko'rik, professional gigiyena, sanitariya – ma'rifiy ish

II guruh (rivojlanish xavfi) - 28,4%:

Mezonlar: gingivit, boshlang'ich kariyes, qoniqarsiz gigiyena

Ko'rik chastotasi: yilda 2 marta

Chora – tadbirlar:
profgigiyena, remineralashtiruvchi terapiya, gigiyenaga o'qitish, gingivitni davolash
III-guruh (davolanishga muhtojlar) - 55,9%:

Mezonlar: yengil - o'rtacha darajadagi parodontit, ko'p sonli kariyes

Ko'rik chastotasi: yilda 3 - 4 marta

Chora – tadbirlar:
parodontitni kompleks davolash, kariyesni davolash, profgigiyena, fizioterapiya
IV-guruh (ixtisoslashgan yordamga muhtojlar) – 5,3%:

Mezonlar: og'ir parodontit, tishlarning sezilarli yo'qotilishi, rakoldi holatlar

Ko'rik chastotasi: har chorakda

Chora – tadbirlar:
tegishli mutaxassislariga yo'llash (parodontolog, xirurg, ortoped), kompleks rehabilitatsiya, oqilona
ishga joylashtirish masalasini hal etish

Uchlamchi profilaktika

Uchlamchi profilaktika kasalliklarning retsidivlari va asoratlarini oldini olish, tish-jag' tizimi funksiyalarini tiklashga qaratilgan.

Chora – tadbirlar:
Surunkali parodont kasalliklari bo'lgan bemorlarni dispanser kuzatuviga olish
Qo'llab – quvvatlovchi parodont terapiyasi (har 3 oyda profgigiyena)
Yilda 2 marta antioksidant va immunomodulyatsiyalovchi terapiya kurslarini takrorlash
Ortopedik rehabilitatsiya (tish qatorlaridagi nuqsonlarni protezlash)
Balneologik omillar qo'llanadigan sanatoriy – kurort davolanishi
Psixologik qo'llab – quvvatlash va dentofobiyaning koreksiya qilish

Xulosa

Ishlab chiqilgan kompleks davolash va profilaktika tizimini qo'llash klinik ko'rsatkichlarni sezilarli yaxshilashga olib keladi: RMA indeksi 58 % ga, parodontal indeks 48 % ga, MDA darajasi 52 % ga pasayadi; slgA 64 % ga oshadi; retsidivlar chastotasi 2,3 marta kamayadi; OHIP-14 so'rovnomasi bo'yicha hayot sifati 72%ga yaxshilanadi. Profilaktik ko'riklar hamda davolash – profilaktik tadbirlar chastotasi dispanser hisob guruhiga ko'ra belgilanishi kerak: I guruh - yilda 1 marta, II guruh - yilda 2 marta, III guruh - yilda 3-4 marta, IV guruh - har chorakda. Og'iz bo'shlig'ining professional gigiyenasi xavf guruhiga qarab har 3-6 oyda o'tkazilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Боровский Е.В., Леонтьев В.К. Биология полости рта. М.: Медицина; 2018. 304 с.
2. Грудянов А.И. Заболевания пародонта. М.: Медицинское информационное агентство; 2018. 336 с.
3. Кузьмина Э.М. Профилактика стоматологических заболеваний. М.: Тонга-Принт; 2019. 216 с.
4. Леонтьев В.К., Пахомов Г.Н. Профилактика стоматологических заболеваний. М.: КСП; 2020. 416 с.
5. Максимовский Ю.М., Митронин А.В. Терапевтическая стоматология. М.: ГЭОТАР-Медиа; 2019. 640 с.
6. Орехова Л.Ю. Заболевания пародонта. М.: Поли Медиа Пресс; 2019. 432 с.
7. Улитовский С.Б. Индивидуальная гигиена полости рта. М.: Медицинская книга; 2018. 192 с.
8. Федоров Ю.А. Гигиена полости рта для всех. СПб.: Человек; 2019. 118 с.
9. Цепов Л.М., Николаев А.И. Диагностика и лечение заболеваний пародонта. М.: МЕДпресс-информ; 2018. 192 с.
10. Янушевич О.О., Кузьмина Э.М. Профилактическая стоматология. М.: ГЭОТАР-Медиа; 2020. 560 с.
11. Axelsson P. Diagnosis and Risk Prediction of Dental Caries. Chicago: Quintessence; 2018. 307 p.

12. Chapple ILC, Van der Weijden F. Primary prevention of periodontitis. *Periodontology* 2000. 2020;78:39–55. doi:10.1111/prd.12286.
13. Featherstone JDB. The science and practice of caries prevention. *J Am Dent Assoc.* 2020;131:887–899. doi:10.14219/jada.archive.2000.0307.
14. Genco RJ, Borgnakke WS. Risk factors for periodontal disease. *Periodontology* 2000. 2019;62:59–94. doi:10.1111/prd.12068.
15. Hajishengallis G. Periodontitis: from microbial immune subversion to systemic inflammation. *Nat Rev Immunol.* 2020;15:30–44. doi:10.1038/nri3785.
16. Kidd EAM. *Essentials of Dental Caries*. 4th ed. Oxford: Oxford University Press; 2020. 192 p.
17. Lang NP, Lindhe J. *Clinical Periodontology and Implant Dentistry*. 6th ed. Oxford: Wiley-Blackwell; 2019. 1480 p.
18. Marsh PD. Microbiology of dental plaque biofilms and their role in oral health and caries. *Dent Clin North Am.* 2019;54:441–454. doi:10.1016/j.cden.2010.03.002.
19. Petersen PE. The World Oral Health Report 2003. *Community Dent Oral Epidemiol.* 2019;31:3–23. doi:10.1046/j.2003.com122.
20. Slade GD. Derivation and validation of a short-form oral health impact profile. *Community Dent Oral Epidemiol.* 2017;25:284–290. doi:10.1111/j.1600-0528.1997.tb00941.

Qabul qilingan sana 20.01.2026